Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319376

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

MODAL TUZILISH VA KOGNITSIYA

Hamidova Sayyora Nurmatovna, Farg'ona politexnika instituti

"O'zbek tili va tillarni o'rgatish" kafedrasi katta o'qituvchisi

Xamidjonov Axliddin Komiljon o'g'li, Mexanika - mashinasozlik fakulteti, QXM yo'nalishi, 29-23 guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada so'zning kognitiv, psixolingvistik, lingvokulturologik hamda boshqa ma'nolarining anglashilishi masalasi hamda modallik turli sathlarda kishining matnga bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalash natijasida hosil bo'ladigan jarayon ekanligi yoritilgan.

Abstract.

In this article, the issue of understanding the cognitive, psycholinguistic, linguo-cultural and other meanings of the word and modality is a process that is formed as a result of expressing the subjective attitude of a person to the text at different levels.

Аннотация

В данной статье проблема понимания когнитивного, психолингвисти- ческого, лингвокультурного и других значений слова и модальности представляет собой процесс, формирующийся в результате выражения субъективного отношения человека к тексту на разных уровнях.

Kalit so'zlar: lisoniy tafakkur, yaratuvchanlik, ijodkorlik, emotsionallik, mentallik imkoniyatlari, dinamik holat, kognitiv, psixolingvistik, lingvokulturologik ma'nolar.

Key words: linguistic thinking, creativity, creativity, emotionality, mental possibilities, dynamic state, cognitive, psycholinguistic, linguocultural meanings.

Ключевые слова: языковое мышление, креативность, креативность, эмоциональность, психические возможности, динамическое состояние, когнитивные, психолингвистические, лингвокультурные смыслы.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligi insonning lisoniy tafakkur hamda nutqiy kommunikatsiyaga kirishish faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni tahlil va tadqiq etish bilan shug'ullanmoqda. Sababi kommunikatsiya jarayonida tilning barcha – yaratuvchanlik, ijodkorlik, emotsionallik, mentallik imkoniyatlari to'lasincha o'z aksini topadi. Mazkur imkoniyatlarning barchasi nutqiy muloqot faoliyatining mahsuli sanalgan kontekstda namoyon bo'ladi. Matn xoh og'zaki bo'lsin, xoh yozma unda muallifning nazarda turgan kommunikativ strategiyasi, muloqot maqsadi yotadi. Bu faqat uning o'ziga ayon bo'lishi ham mumkin. So'ngi yillarda ko'plab tadqiqotchi olimlar ana shu matnning semantik tomonini diskurs, subyektiv baholash nuqtayi nazaridan ochib berishga intilishmoqda. Biroq shunday o'rinlar mavjudki, uni bir qarashda ilg'anmaydigan ma'no kasb etganligiga guvoh bo'lish mumkin. Bunday semantik talqin muallifning o'z nutqiga bo'lgan shaxsiy munosabati orqali namoyon bo'ladi. Bu esa tilshunoslikda modallik tushunchasi bilan bog'liq bilimlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi.

Published: 10.11.2023

Cite this article: Hamidova Sayyora Nurmatovna, Xamidjonov Axliddin Komiljon o'g'li (2023). Modal tuzilish va kognitsiya. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319376

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Tilni dinamik holatda ya’ni kommunikatsiya jarayonida o‘rganishga urinish matnni modal tuzilish asosida o‘rganishni talab etadi. Matn – kommunikativ hodisa sifatida muallifning potensialini ham belgilashga xizmat qiladi. Matnda biror so‘zning voqelikda mavjud bo‘lgan tal;qinlaridan faqat bittasi tasvirlangan bo‘ladi va muallif tomonidan o‘z dunyoqarashi, o‘z gipotezalarini singdirish orqali o‘quvchiga ta’sir etadi. Nutq predmetning nutqiy vaziyatga, voqelikka, o‘zining nutqiga bo‘lgan subyektiv munosabatini ifodalovchi modal shakllar modal tuzilishni hosil qiladi. Bu borada dunyo tilshunosligida ham o‘zbek tilshunosligida ham amalga oshirilgan ishlar talaygina.

So‘z borki, u ma‘lum bir mazmunni anglatadi, uning turli ma‘nolarini ifodalashda semantikaga murojaat qilmaslikning imkoni yo‘q. Semantika esa pragmatika, kognitsiyasiz o‘zini namoyon eta olmaydi. Pragmatik mohiyatni anglatish uchun esa, bevosita psixolingvistikaga ehtiyoj seziladi. Yuqorida sanalgan yo‘nalishlarni birlashtirib turadigan bir tushuncha mavjud – bu mentalingvistika. Dunyo bo‘yicha bir so‘zning kognitiv, psixolingvistik, lingvokulturologik hamda boshqa ma’nolarining anglashilishi, albatta, mentallik bilan bog‘liq. Masalan, birgina Bolani erkalatish masalasiga keladigan bo‘lsak, bu jarayon turli xalqlarda turlicha konseptuallik hosil qiladi. O‘z bolalarini “qo‘zichog‘im” deb erkalash o‘zbek xalqiga xos. Qo‘zichoq qo‘yning bolasi, bizning mental tafakkurimizda ushbu hayvon ijobiy attenkaga ega. Bu erda qo‘yning halolligi, yoqimtoyligi, beozorligi va kichikligi paradigmalari uning xalq orasida sevimli jonivor ekanligidan dalolat beradi. Endi o‘ylab ko‘raylik, o‘zbek xalqiga mansub biror shaxs o‘z bolasini “ilonim, iloncham” deya erkalatishi mumkinmi? Bizningcha, yo‘q. Sababi ilon leksemasi beradigan ekspressivlik salbiy bo‘lib, u sovuq, zaharli jonzod sifatida tafakkurda gavdalanadi. Biroq xitoy xalqi mentalingvistikasida, aksincha, ilon timsoli ulug‘vorlik, poklik, hukmronlik mazmunida qadrlanadi. Ular hech ikkilanmasdan o‘z farzandlarini “iloncham” deya erkalatishlari mumkin. O‘ylab qaralsa, biror atamaning mohiyatiga tubdan qaraganda uning har bir ma’nosida mentallik o‘z aksini topadi.

Demak, hech bir so‘zni uning muallifi sanalmish insondan ayro holatda tadqiq etib bo‘lmaydi. Shu asosda so‘nggi yillarda kognitiv tadqiqotlar ko‘lami har qachongidan ham ortib, bu boradagi ilmiy izlanishlarga bo‘lgan talab borgan sari kuchaymoqda. Shu o‘rinda kognitiv tilshunoslikning asl mohiyati nima degan savol tug‘ilishi mumkin. Modallik kategoriya sifatida uzoq yillardan beri tadqiq etilib kelinayotgan masalalardan biri sanaladi. Modallik, dastlab, tilshunoslikning sintaktik sathiga doir birlik sifatida talqin qilingan. Endilikda esa modallik matnga xos kategoriya sifatida shakllandi, matndan anglashiladigan kognitiv-diskursiv hodisa sifatida o‘rganilmoqda. Buning sababi modallikning ifoda ko‘lami juda keng, u tilning barcha: fonetik, leksik, semantik, morfologik, sintaktik sathlarida o‘zini namoyon etadi.

O‘zbek tilshunosligida modallik kategoriyasi, modal tuzilish, modallikning turlari va shunga o‘xshash masalalarda amalga oshirilgan ishlar ko‘p. tilshunos olim Z.N.Pardayevning fikricha, turkiyshunoslikda modallik haqidagi qarashlar (tadqiqotlar) ikki xil yo’nalishda bo’lgan:

a) morfologik yo’nalish: modallikni so’z va so’z shakllariga bog’lab o’rganish;
b) sintaktik yo’nalish: modallikni gap tizimiga bog’lab o’rganish.

Demak, modallik inson tomonidan bildirilgan fikrning yuzaga chiqishida voqelanadi. O‘zbek tilida modallik kategoriyasining o‘ziga xosligini aniqlashda tilning tovush va talaffuz imkoniyatlari, qonuniyatlari, leksik, semantik tuzilishi, intonatsion shakli, morfologik va sintaktik xususiyatlari, shuningdek, uslub tomoni ham muhim sanaladi. O’zbek tili grammatikasida modal leksemalarning ikki turi ko‘rsatilgan:

1) fikr aniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal so’zlar;
2) fikr noaniqligini ifodalash uchun xizmat qiluvchi modal so’zlar

Birinchi turga xos modal so‘zlar yordamida fikrning rostligi, realligi *(haqiqatdan, darhaqiqat),* fikrning qat’iyligi *(shubhasiz, so‘zsiz*), anglatilayotgan voqelikning yuz berishiga ishonch bildirish *(albatta),* anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligi *(o‘z-ozidan, tabiiyki),* fikrning chinligi, realligi *(darvoqe, rostdan ham, aslida)* kabi ma’nolar anglashilsa, ikkinchi turda fikrning taxminiy ekanligi (*shekilli, chog‘i, chamasi*), fikrning gumonli ekanligi *(ehtimol, balki)*, fikrning tusmolli ekanligi *(hoyna-hoy, aftidan),* fikrning chinligiga gumon, ishonch (*har holda*, *har qalay*) kabi ma’nolar sezilib turadi.

Tabiat inson bilan bog‘liq, bu ikkala mavjudlik hamisha bir-birini to‘ldiradi. Inson tabiatni, butun borliqni idrok etish natijasida o‘z tafakkurida kognitsiyani hosil qiladi. Bobning ikkinchi faslida modal tuzilish hamda kognitsiya masalasiga batafsil to‘xtalish barobarida shunday xulosaga kelindi. Modal tuzilish – bu modal shakllarning turli sathlarda namoyon bo‘lishi, ularda o‘ziga xos vazifalarni bajarishining lingvomadaniy xususiyat bilan bog‘liqligiga alohida e’tibor qaratildi. Modallik fonrtik, leksik, morfologik, sintaktik, stilistik va shu kabi sathlarda kishining matnga bo‘lgan subyektiv munosabatini ifodalash natijasida hosil bo‘ladigan jarayon. Har qanday matnda modal tuzilish formalari bo‘lishi tabbiy hol. Shuningdek, kognitsiya – bu olamni anglash bilish jarayoni bo‘lib, kishi tafakkurida o‘z aksini topadi. Kognitsiya kishining hayoti, turmush sharoiti, dunyoqarashi, mentallik xususiyatlarini o‘zida qamrab oladi. Kognitsiya olamni idrok qilish, tafakkur, tasavvur, nutq, turkumlashtirish kabi unsurlar yordamida hosil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pinxasov Ya.Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida modal so‘zlar//O‘zbek tili va adab.1961.1-son,-B.43-47;S
2. S.Saidov.Modal so‘zlarni o‘rganish tarixidan//O‘zbek tili va adabiyoti,1963. -№ 4. -B.37-42;
3. Saidov S.Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi modal so‘zlarning klassifikatsiyasi masalasiga doir//O‘zbek tili va adabiyoti,1963.-№6.-B.43-48;
4. Ravshanova S.O‘zbek tilida sub'ektiv baho formalarining ma'nolari haqida//O‘zbek tili va adabiyoti,1969.-№2.-B.62-64;
5. Hojiyev A.Modal yoki sub'ektiv baho formalari haqida//O‘zbek tili va adabiyoti,1978.-№1.-B.3-6;
6. O‘zbek tili grammatikasi. 1-tom.Morfologiya.Toshkent:Fan,1975.-B.583;